

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTALARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH.

Mamateminova Umida

Jizzax shahar 37-DMTTda tarbiyachi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotalarida interfaol usullardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, ta'lim-tarbiya, o'yin kompetensiyasi, ta'limiy jarayon, malaka oshirish tizimi, zamonaviy usullar, rivojlanish sohasi, rivojlanish, mantiqiy o'yinlar, interaktiv usullar.

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarni yanglashga e'tibor berish maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga

ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish o'qituvchi va tarbiyachi va zamonaviy usullardan foydalanish, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga qo'ygan vazifalar zahirida amalga oshirilmoqda.



Interfaol metodlar mazmuniga ko'ra bolalar faol o'zaro ta'sir qilish sharoitida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Birgalikdagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va tassurotga boy bo'lishini ta'mvaydi. Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va

yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo'nalishlari belgavab berilgan. Unga ko'ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagvar ajratib ko'rsatildi:

➤ Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

➤ O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qvadi.

➤ Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bvan axloq-odob normalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

➤ Bilish kompetensiyasi – atrof-muhitni ongli ravishda idrok qva olish va bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.

Interfaol usullarni bolalar ta'limiy jarayonida qo'llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o'yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so'z o'yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur. Hozirgi davrdagi inqilobiy hodisalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlardagi nomutanosibliklar global muammolardek jamiyat ravnaqiga aks ta'sir etmoqda. Agarda erta yosh davridan bolalarda ijtimoiy hayot qadriyatlari shakllantirib borilsa, kelajakda sog'lom hayot tarzini yaratishda zamin bo'lib xizmat qvadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv usullardan "Aqliy hujum", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash", "Bahs-munozara", "Galeriyaga sayr", "Klaster", "Bumerang", "Enerjayzerlar"dan foydalanish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va oxirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash hamda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun aqliy hujum usulidan foydalanishi mumkin.

"Kichik guruhlarda ishlash" – bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslanadi. Bunda guruhga tahlil qilish, tekshirish asosida berilgan mavzu ishlab chiqadi.



“Rolli o‘yinlar”da bolalarga biror muammoli vaziyat beradi. Bolalar bu metod yordamida (real hayot) holatlarini qayta jonlantiradilar.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv usullar va metodlardan foydalanish maktabgacha ta’lim sifati vasamaradorligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni mashg‘ulotga qiziqishinitashkil etishdabolalarning o‘ziga xos belgvarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimahamiyat kasb etishi qayd etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. X.A.Meliyev, M.X.Qilichova. “Maktabgacha pedagogika”. Toshkent. Darslik. 2022 yil. 471 bet.
2. Norqo‘ziyeva M. “Yangi innovatsiyalarni kasbiy faoliyatda qo‘llash fanidan ma‘ruzalar matni”. / Uslubiy qo‘llanma / – Jizzax: JDPU “Tahririy-nashriyot bo‘limi nashri”, 2023. – 108 bet.
3. Raximov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: 2014. – 160 b.
4. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiya-ta’lim tarbiya sifat va samaradoriligini oshirish omili. // Xalq ta’limi jurnali. 2004., 4 son. 12 bet.